
QO'SHTEPA TUMANIDA KO'CHMA SAVDO DO'KONLARI FAOLIYAT OLIB
BORMOQDA

Karantin sharoitida aholiga asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlarini uzluksiz yetkazib berilishini ta'minlash maqsadida Qo'shtepa tumani hokimligi, sektor rahbarlari va tegishli tashkilotlar hamkorligida tumanning chekka hududlari uchun 14 ta avtomobildan iborat ko'chma savdo do'konlari tashkil qilindi.





Fuqarolarga qulaylik yaratish maqsadida tuman “Dehqon bozori” MCHJ qoshida 37 ta turg’un hamda 14 ta ko’chma savdo do’koni tashkil etildi. Tumanimiz aholisi ushbu do’konlardan turli hil oziq-ovqat va qishloq xo’jaligi mahsulotlarini arzon narxlarda xarid qilish imkoniga ega bo’ldilar. Avtomobillarda tashkil qilingan kunlik ko’chma savdo do’konlari esa chekka hududlarda yashovchilarga qulaylik yaratish bilan birga bozorlar va savdo markazlarida fuqarolarning gavjum bo’lishini oldini oladi.





2020-04-07 13:50:36